

KALENDARLAR TARIXI VA GRIGORYAN KALENDARINING VUJUDGA KELISHI.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Hafizov Sarvar Boborajab o'g'li.

shafizov@dpi.uz

https://orcid.org/0009-0000-1299-205X

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Abdug'afforov Ozodbek Navro'zaliyevich

e-mail-@ozodbekabdugafforov309

Tel:+998507244430

Annotatsiya. Qadimgi davrlarda bir qancha davlatlar o'z kalendarlariga ega bo'lganlar, ba'zilar esa boshqa davlatlar kalendarlarini o'z yurtlarida joriy qilganlar. Mazkur maqolada, kalendarlarning qay tariqa vujudga kelganligi, shuningdek, hozirgi kunda butun dunyoda amalda qo'llanilib kelinayotgan Grigoryan kalendarining tarixi va joriy etilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kalendar tarixi, oy kalendari, quyosh kalendari, oy-quyosh kalendari, Yulian kalendari, Ignatij Danti, Grigoriy kalendari, katoliklar.

Аннотация: В древние времена несколько стран имели свои собственные календари, а некоторые страны вводили в своих странах календари других стран. В данной статье рассказывается о том, как создавались календари, а также об истории и внедрении григорианского календаря, который в настоящее время применяется во всем мире.

Ключевые слова: История календаря, лунный календарь, солнечный календарь, лунно-солнечный календарь, юлианский календарь, Игнатий Данте, григорианский календарь, католики.

Abstract. In ancient times, several countries had their own calendars, and some countries introduced the calendars of other countries in their countries. This article discusses how calendars were created, as well as the history and introduction of the Gregorian calendar, which is currently in practice around the world.

Key words: Calendar history, lunar calendar, solar calendar, lunisolar calendar, Julian calendar, Ignatius Dante, Gregorian calendar, Catholics.

Kalendar atamasi lotincha kalendarium "qarz daftari" degan ma'noni bildiradi. Qadimda Rimda qarzdorlar o'zining birinchi kuni qarzlarini foizlarini to'laganlar va bu "kalenda" ga qayd qilib borilgan. Tabiatdagi aniq bo'lgan vaqt hisobi birliklari sutka, oy va yil qadimdan ma'lum bo'lib-qadimgi kalendarlarning asosini tashkil etgan. Biz kalendar deb shunday vaqt hisobini aytamizki, uning asosida osmon yoritqichlari harakatiga bog'liq tabiatning davriy hodisalari yotadi. Bunday sistemani yaratish

birinchi bo'lib ilk neolit davrida sodir bo'ldi. Bu ishlab chiqarish xo'jalik shakllarining paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Dehqonchilik va chorvachilik fasliy tabiat hodisalari bilan bog'liq edi[1].

Tarixdan tabiat hodisalari bilan bog'liq uch turdagi kalendar mavjud . Bular , oy kalendarlari , oy quyosh kalendarlari va quyosh kalendarlari . Oy kalendarlari: unda kalendar oylaridagi davomiylik faqat oy fazasi o'zgarishi bilan belgilanadi .Har bir oy yangi oy chiqishi bilan boshlanib , yigirma to'qqiz va o'ttiz sutka davom etadi . 12 oy yilni tashkil qiladi butun yilda esa 354 sutka mavjud bo'ladi. Keyinroq yangi oyni kuzatishdagi aniqliklar hisobiga yillar 355 sutka hisobiga ko'payishi mumkin. Oy kalendar ko'plab mamalakatlarda boshqa calendar sistemalaridan avval paydo bo'lgan . hozirgacha oy kalendai bir qancha musulmon davlatlarda u yoki bu tarizda saqlangan. Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq aholiga oy kalendar u qadar qulay emas , shuning uchun ko'p davlatlarda ular oy -quyosh yoki quyosh kalendarlari bilan almashtirilgan. Chunki oy kalendarlari har yili tabiat hodisalarinio ikki kunga Oldinga suradi. Oy- quyosh kalendar: ushbu kalendar oy fazasi almashuvi va quyoshning yillik harakati va qo'shimcha 13 oy, 19 quyosh yilining 235 oyiga (meton sikliga) har 19 yildan 12 yili 12 qamariy oydan iborat bo'ladi, 7 yil esa 13 qamariy oyidan iborat bo'ladi. Oy quyosh kalendar Vavilon, qadimgi Xitoy Iyudiya , qadimgi Gretsiya, qadimgi Rimda qo'llanilgan hozirgi vaqtda esa Isiroil davlatida pasxa kunini hisoblashda qo'llaniladi.Oy -quyosh kalendarining vazifasi murakkabroq chunki u oy fazzalari o'zgarishi astronomik yil boshlanishi va tengkunliklarga mos bo'lish kerak.[2]

XVI asr o'rtalariga kelib, kalendarni isloh qilish masalasi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. 1582-yilda Rim papasi Grigoriy XIII maxsus komissiya tuzdi, uning tarkibida Balon universiteti professori astronom va matematik Ignatyi Danti (1536-1586) ham bor edi. Bu komissiyaga yangi kalendar loyihasini tuzish vazifasi topshirildi. Komissiya taqdim etilgan barcha kalendar loyihalarini ko'rib chiqib, Italiyalik matematik va vrach Aloiziy Luiji Lilio (1520-1576) loyihasini ma'qul topdi. Luiji Lilio Peruji shahrida universitetda meditsinadan dars bergan. Ushbu kalendar loyihasini uning o'limidan so'ng ukasi Antonio Luiji nashr qildi. Kalendar loyihasi papa Grigoriy XIII qabul qilinadi va kunni 10 kun oldinga surishga farmon beradi. Qabul qilingan loyihadagi tuzatishlar quyidagicha edi: 1582-yil 4-oktyabr payshanba kunining ertasi 5-oktyabr emas, balki 15-oktyabr juma kuni hisoblanadi. Bu bilan yuqoridagi 10 sutka xato tuzatilib bahorgi tengkunlik 21-martga to'g'ri keladi. Kelgusida yana shunday xato yig'ilmasligi uchun 400 yilda 3 sutka kam hisoblanishi kerak buning uchun Yulian kalendarida 400 yilda 100 ta kabisa yili o'rniga 97 ta kabisa yili hisoblanadi. Yulian kalendarida asrni ifodalaydigan raqamlarning 4 ga bo'linmaydiganlarini kabisa yili emas, balki oddiy yil hisoblashga qaror qilindi[3]

Grigoriy kalendar dastlab katoliklar hukmronlik qilgan davlatlarda qabul qilindi. Lyuteranlar va Provaslavlar bu kalendarga ancha vaqtgacha qarshilik qildi. Bir

qator mamlakatlarda qiyinchiliklar bilan bu kalendar qabul qilindi. Tarixda 1584-yilda Rigada Polsha qiroli Stefan Batoriyaning farmoniga qarshi bo'lgan "kalendar tartibsizliklari" bo'lib o'tdi. Latishlar yangi kalendarga qarshi bir necha yil kurashdilar. Kurash 1589-yilda qo'zg'olon rahbarlari Gize va Brinken osib o'ldirilgandan keyingina to'xtadi. Grigoriy kalendari Angliyada 1751-yilda qabul qilindi. Ular yilning boshini 25-martdan 1-martga ko'chirdilar va o'sha yili Angliyada bir yil 282 kunni tashkil etdi. Angliyada kalendar islohotini o'tkazishda tashabbuskor bo'lgan lord Chertelfestga qarata xalq "bizning uch oyimizni qaytar" shiori ostida namoyishlar o'tkazgan edi[4].

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki insonlar har zamon turmush tarzi va jamiyatda yashashlari uchun doimo kalendarlarga ehtiyoj sezganlar. Kundalik hayotda ular ma'lum bir yumushni qilishlari uchun vaqtni to'g'ri taqsimlash uchun kalendarlarning yuzaga kelishi juda zarur bo'lgan. Shuningdek tarixda ko'plab hukmdorlar o'z kalendarlarini yaratganlar ammo ular vaqt hisobini to'g'ri taqsimlay olmaganlar. Shuning uchun ham Rim Papasi Grigoriy o'z davri uchun mukammal bo'lgan kalendarni tuzishga boshchilik qilgan bu kalendar xatosiz va mukammalligi uchun ham hozirgi kungacha butun dunyoda amalda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z. Rahmonqulova "Xronologiya" 1- kitob T. 2013. 22-b
2. Choriev Z. U, Iofe V. G. "Xronologiya va metrologiya" T. 2002. 10-b
3. Z. Rahmonqulova "Xronologiya" 2-kitob T. 2013. 107-b
4. Choriev Z. U, Kofe. V. G. " Xronologiya va metrologiya" T. 2002. 110-b.